

### QADIMGI DUNYO TARIXINI O'RGANISHDA INTEGRATSION YONDASHUV.

**Qalandarova Madina Jo'rabek qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-bosqich talabasi E-mail:@qalandarovam\_gmail.com*

**Vaxobova Baxtigul Valijon qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-bosqich talabasi E-mail: vaxobovabaxtigul06@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ta'lim va tarbiya rivojlanmas ekan, xalqlarning madaniyati, bilim salohiyati ham tobora yomonlashib boradi. Bugungi kunda ta'limgiz tizimida qator yangiliklar amalgam oshirilaydi. Shu qatori tarix sohasini ham o'qitish borasida yangidan-yangi yondashuvlardan foydalanilmoqda. Bulardan biri integratsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu maqolada integratsion yondashuv, uning tarixi shuningdek qadimgi dunyo tarixini o'qitishda integratsion usullar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'z:** integratsiya, qadimgi dunyo, XVII asr, seadal jamiyat, ibridoiy tuzum, Qadimgi Sharq.

Mamlakat rivojlangan sari uning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari ham tobora o'sib boradi. Bu kabi o'zgarishlar ta'limgiz sohasini ham chetlab o'tmaydi. Tarixni o'qitish va uni o'rganishga yangicha yondashish, hozirga qadar tarix o'qitish sohasida yo'l qo'yilib kelingan xato va kamchiliklarning asl mohiyatini tezroq anglab olish uchun mакtabda o'qitiladigan tarix ta'limi isloh qilindi, natijada tarix ta'liming tuzilishi o'zgardi. Integratsiya fanlar va ularning tarmoqlarini tabaqalanishi, bilimlar hajmining ortib borishi va zamonaviy fanlarda unga qo'yiladigan talablar bilan dialektik qarama-qarshilik fonida vujudga keldi. Fanlarning tabaqalanish jarayonining chuqurlashishi qarama-qarshi natjalarga olib keladigan sabablardan biridir. Bu yaxlitlikka intilish, turli sohalardagi bilimlar yig'indisi, qadimiy manbalarga, xususan, falsafa, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar, san'at tarixi bilan birligi bilan antik fanga o'ziga xos qaytish, barcha bilimlarni integratsiyalashgan holda, o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lgan qadimgi madaniyatning yagona hodisasiadir.

Integratsiya konsepsiysi fundamental fanlar sohasida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi vaqtida u dolzarb masala hisoblanadi, chunki u nafaqat fanda, balki umuman san'at va madaniyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni tavsiflaydi:

- XVII asrda matematikada qat'iy belgilangan amalni belgilash uchun ishlatalgan;
  - XIX asrda tirik organizmlar evolyutsiyasi mexanizmini tushuntirish uchun fanga "integratsiya" tushunchasi kiritildi;
  - XX asrda "integratsiya" atamasi falsafa, iqtisod, geografiya fanlarida turli fanlarda atamalarning o'zaro kirib borishi va moslashuv jarayonlarini tavsiflash uchun qo'llanilgan;
  - hozirgi vaqtida pedagogika fanlarida "integratsiya" tushunchasi keng qo'llanilmoqda.
- "Integrasiya" kategoriyasini tahlil qilar ekanmiz, biz terminologik usullarga murojaat qilishni va "integratsiya" tushunchasini uning ma'nosini izohlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni zarur deb hisoblaymiz. Ta'limgiz olishda "Integratsiya" so'zining ma'nosi muhim

tarkibiy qismga ega. Bu tushuncha lotincha integratio – “yaxlit”, “to’ldirish” so’zidan kelib chiqqan. Integratsiyani aniqlashning asosiy tamoyillari dialektikaning qismlar va munosabatlari haqidagi qonunlari, yaxlitlikni shunday tushunish edi, bu oddiy qismlar yig’indisiga kamaytirilmaydi, lekin qismlarning o’zaro ta’siri sifatida tushuniladi.

O’zbekistonda tarix sohasini o’rganish borasida qator o’zgartirishlar amalga oshirildi. O’zbekiston xalqlari taraqqiyotidagi ma’lum davrlarni jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotining ana shu davrlari bilan bog’lab, birgalikda qiyosiy o’rganila boshlandi.

Jahon mamlakatlari tarixi o’zining tuzilishiga quyidagicha ega bo’ldi.

- 1) Jahon tarixining qadimgi davri.
- 2) Jahon tarixining o’rta asrlar davri.
- 3) Jahon tarixining yangi davri.
- 4) Jahon tarixining eng yangi davri.

Jahon tarixi umumta’lim maktablarning 5-9- sinflarida o’qitiladigan bo’ldi.

- 1) 6-7- sinflarda qadimgi dunyo va o’rta asrlar tarixi.
- 2) 8-9- sinflarda jahon tarixining yangi davri o’qitiladi.

Jahon tarixining hozirgacha o’rganib kelinayotgan kursi asosan to’rtta qadimgi, o’rta asrlar, yangi va eng yangi davrlarni o’z ichiga oladi. Bu davrlar insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidan kelib chiqib tarixda izchillikni ta’minlaydi. Shu sababli bu darslarni bosqichma-bosqich o’rganish jahon tarixini o’zlashtirishni osonlashtiradi.

Jahon tarixi sinflar bo‘yicha quyidagicha tuzilishga ega.

1) 5 sinfda Tarixdan hikoyalari darsida Vatanimiz va jahon tarixining eng qadimgi davridan 21 asrning boshlarigacha bo’lgan davri - 68 soatda o’rganiladi.

2) 6- sinfda Tarix darsida ham Vatanimiz va jahon tarixining qadimgi dunyo tarixi - 68 soatda o’rganiladi.

- 3) 7- sinfda jahon tarixining o’rta asrlar davri - 51 soatda o’qitiladi.
- 4) 8- sinfda jahon tarixining yangi davri (1 davr) - 51 soat o’rganiladi.
- 5) 9- sinfda jahon tarixining yangi davri o’rganiladi, unga 51 soat ajratilgan.

Qadimgi dunyo va o’rta asrlar tarixi kurslari o’tmishning ko’p qirrali ijtimoiy hayotining, dastlabki uchta ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyani, ya’ni ibridoij jamoa, quzdorlik va feodal tuzumlarning vujudga kelishi va rivojlanishi va almashinish qonuniyatlarining tarixiy jarayonning pribessivligini ochib beruvchi bilimlar sistemasini o’z ichiga oladi.

Qadimgi dunyo va o’rta asrlar tarixi kursida tarixiy tushunchalarni tanlash juda muhimdir. Bu ko’rslarda tarixiy tushunchalarni quyidagicha uch turga bo’lish mumkin.

1. Bir yoki bir necha xalqlar va mamlakatlarga tegishli tushunchalar: gladiator, kolon.
2. Butun bir formatsiyaga doir tushunchalar: qul, quzdor, feodal.
3. Bir necha ijtimoiy – iqtisodiy formasiyalarga doir tushunchalar: sinflar, sinfiy kurash, davlat, madaniyat va boshqalar.

Qadimgi va o’rta asrlar tarixi kurslarida keyingi tur tushunchalar mazmuni dastlabki uch formasiyaga taalluqli qilib ochib beriladi. Moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, sinflar, sinfiy kurash, davlat, xalq ommasining tarixda xal qiluvchi roli xaqidagi umumiy tarixiy tushunchalar sistemasining yuzaga kelishi va ularning asta-sekin chuqurlashib borishi qadimgi dunyo va o’rta asrlar tarixini mazmunini tashkil etadi va ular yuqori sinflarda tarix kursining

o'zlashtirishida ham muhim o'rinni tutadi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixida dastlabki uch formasiyadan har birining vujudga kelishi, rivojlanishi, tushkunlikka yuz tutishi va halok bo'lish bosqichlarini boshidan kechirganligi o'rganiladi. O'tmishning har bir tuzumiga xos ana shu qonuniyatlarni o'rganib, bilib olish uchun o'quvchilarining keyinchalik yuqori sinflarda kapitalistik formasiyaning ham tarixan qonuniy ravishda kelib chiqqanligini, uning tushkunlikka yuz tutishi va inqirozi qonuniyatli holat bo'lish bosqichlarni boshidan kechirganligi o'rganiladi.

Qadimgi dunyo tarixi butun jahon tarixining g'oyat katta davrini salkam ikki million yil davom etgan ibridoij jamiyat tarixining hamda uch-to'rt ming yilliklar davomida hukm surgan va Atlantik okeanidan Tinch okeanigacha chuzilgan katta hududga yoyilgan quldorlik jamiyatni tarixini o'z ichiga oladi. Bu kurs materiali ijtimoiy hayot hodisalarining tarixiyligini ularning muayyan tarixiy sharoitlarda vujudga kelishi, rivojlanishi va halokatini yaqqol va ishonchli tarzda ko'rsatishga imkon beradi. O'quvchilar jamiyat taraqqiyotiga mehnatning roli, ibridoij jamiyatdan sinfiy jamiyatga o'tish sabablarini davlatning vujudga kelishi va boshqalarni aniq tarixiy faktlar asosida anglab oladi.

Qadimgi dunyo tarixi "Kirish" ikki qism Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar turmushi va "Qadimgi SHarq", "Qadimgi Gresiya" va "Qadimgi Rim" kabi bo'limlardan iboratdir.

Kirish darsi "Qadimgi dunyo tarixi umumiy tarixning bir qismi", "Qadimgi dunyo tarixi nimani o'rganadi", "Biz qadimgi dunyo tarixini qaerdan bilamiz" degan savollarga javob beradi.

"Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar turmushi"ga bag'ishlangan birinchi qismda boshqa bo'limlar singari jahon tarixi ayrim mamlakatlar tarixi misolida emas, balki ibridoij odamlar turmushining umumiy xolati yoritiladi, bunda konkret tarixiy voqealar yo'q, aniq xronologik sanalar ham berilmaydi. Tarixiy izchillik bilan yoritilgan faktlar bu bo'limning mazmunini tashkil etadi, tabiiy faktlarning vaqt taxminan ko'rsatilgan, faktlar sodir bo'lган geografik muhit tasvirlab berilgan.

Bu qism uchun tanlangan faktlar ibridoij jamiyat taraqqiyotining olti bosqichini, keyingi har bir bosqichda avvalgi bosqichlarga qaraganda odamlarning maishiy turmushi, hayoti va ideologiyasida qanday yangiliklar paydo bo'lganini shu sinf o'quvchilarining saviyasiga mos ravishda ko'rsatib beradi. Masalan, ibridoij jamoa tuzumining tushkunlikka yuz tutishi va uning yemirila boshlash jarayoni, misdan yasalgan mehnat qurollari va omochning paydo bo'lishi, jamoa tuzumining yemirila borishi urug' xo'jaliklarining bo'linib keta boshlaganligi, urug' jamoasining qo'shni jamoaga o'tila boshlaganligi, zodogonlar ajralib chiqish faktlari misolida ko'rsatilgan.

“Qadimgi Sharq” bo'limining Qadimgi Misr materiali asosida o'quvchilar quldorlik tuzumining paydo bo'lishi bilan tanishadilar. Dasturda “Qadimgi Sharq” bo'limining boshida hamma mavzularni o'rganish uchun qancha vaqt ajratilgan bo'lsa, “Qadimgi Misr” mavzusini o'rganish uchun ham shuncha vaqt ajratilgan. “Qadimgi Misr” mavzusida Misrning sotsial-siyosiy va ishlab chiqarish tarixiga doir eng muhim faktlar mazmunini: dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikning rivojlanishi, sinf va davlatlarning vujudga kelishi va ularning bitta davlat qo'l ostida birlashtirilishi, piramidalar qurilishi, kambag'allar, fir'avnlarning istilolari, eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Misr davlati quratining

orqaga ketishi xronologik tartibda bayon qilinadi. Bu faktlarni bayon etish jarayonida xo‘jalik ijtimoiy sinflar, istilochilik urushlari va quldorlik tuzumiga berilgan umumiylar harakteristikalar va boshqa juz’iy tushunchalarning mazmuni ochib beriladi. Mavzuning oxirida qadimgi Misr dini, san’ati, yozuvi va fanining asosiy xislatlari yoritiladi. Old Osiyo tarixida temir buyumlar ishlana boshlash va uning jahon tarixidagi ahamiyati, podsho Hammurapi (mil.avv 1792-1750) qonunlari haqidagi yangi materiallar asosida quldorlik jamiyatni va quldorlik davlati to‘g‘risidagi tushunchalar to‘ldiriladi.

Qadimgi Hindistonda quldorlik davlatlarining paydo bo‘lishiga doir material asosida Sharqda qadimgi davlatlarining paydo bo‘lishi sabablari va jarayonlari haqidagi bilimlar beriladi. Kastalar haqidagi material bataysil bayon qilinadi.

“Qadimgi Xitoy” degan mavzudada Xitoyda quldorlik davlatining vujudga kelishi, sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi, “sariq rumollilar” qo‘zg‘oloni bataysil bayon qilinadi. Bu qo‘zg‘olon haqidagi ma’lumotlar vositasida o‘quvchilarning qadimgi zamondagi sinfiy kurash to‘g‘risidagi tasavvurlari boyitiladi.

Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixiga bag‘ishlangan bobda bu davlatlarning tarixi, madaniyati, dini va ijtimoiy-iqtisodiy hamda mdaniy hayotiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan bo‘limda yurtimiz tarixida bo‘lgan sulolalar, ularning harbiy yurishlari haqida bataysil ma’lumotlar beriladi. Shuningdek makedonlar istilosи, fors hukmdorlarining yurtimiz hududiga qilgan yurishlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Qadimgi dunyo tarixi kitobi o‘quvchilarda yurtimiz va jahon tarixi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish ularda tarixiy bilimlarni yanada mustahkamlanishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘qdir”. O‘z tarixini bilmagan xalqning farzandlarida vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanmaydi. Shunday ekan, o‘quvchilarda tarixiy bilimlarni o‘stirish va ko‘nikmalarni hosil qilish biz tarixchilarning asosiy burchimizdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tairov, S. M. (2023). FAN VA TA’LIMDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING O’ZARO BOG’LIQLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 813-815.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. - T.: “Ma’naviyat”, 2008.-176 b
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. - 180 b.
4. N.I. Xasanova, P.O. Normamatova “Tarix o‘qitish metodikasi” Toshkent-2024.